

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL



Avgust №8, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vilniaus Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 17-sahifa.
2026-yil, avgust.





MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

ULUG'BEK NURULLAYEV

Tomorqa xo'jaliklari faoliyatidan olingan daromadga noqishloq xo'jaligi faoliyati ta'sirini iqtisodiy baholash.....8

RO'ZMAMATOV ABBOS TOLIBJON O'G'LI

O'zbekistonda chakana savdo tarmog'ining tarkibiy o'zgarishlari va savdo xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishlari.....17





O'ZBEKISTONDA CHAKANA SAVDO TARMOG'INING TARKIBIY O'ZGARISHLARI VA SAVDO XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

RO'ZMAMATOV ABBOS TOLIBJON O'G'LI

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

E-mail: rozmatov18@gmail.com

ORCID: 0009-0003-0026-9982

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston chakana savdo tarmog'ining 2016-2025-yillardagi tarkibiy o'zgarishlari tahlil qilingan. Korxonalar soni dinamikasi, savdo aylanmasining nominal va real o'sishi o'rtasidagi tafovut, hududiy differentsiatsiya darajasi hamda elektron tijorat segmentining shakllanish bosqichlari o'rganilgan. Tahlil natijalari tarmoqda miqdoriy kengayishdan sifat jihatdan yiriklashuvga o'tish jarayoni kechayotganini ko'rsatdi. Maishiy texnika va elektronika savdosida raqobatning narx maydonidan xizmat ko'rsatish maydoniga ko'chishi asoslanib, savdo xizmatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: chakana savdo, savdo xizmatlari, xizmat ko'rsatish sifati, maishiy texnika, elektronika, savdo aylanmasi, real o'sish, elektron tijorat, hududiy tafovut, iste'molchi xulq-atvori.

Аннотация. В статье проанализированы структурные изменения в сфере розничной торговли Узбекистана за 2016-2025 годы. Исследованы динамика числа торговых предприятий, разрыв между номинальным и реальным ростом товарооборота, степень региональной дифференциации, а также этапы формирования сегмента электронной коммерции. Результаты анализа показали, что в отрасли происходит переход от количественного расширения к качественному укрупнению. Обосновано смещение конкуренции в торговле бытовой техникой и электроникой из ценовой плоскости в плоскость обслуживания, разработаны предложения по совершенствованию торговых услуг.

Ключевые слова. розничная торговля, торговые услуги, качество обслуживания, бытовая техника, электроника, товарооборот, реальный рост, электронная коммерция, региональная дифференциация, потребительское поведение.

Abstract. The article analyzes structural changes in Uzbekistan's retail trade sector over the period 2016-2025. It examines the dynamics of the number of retail enterprises, the gap between nominal and real growth of turnover, the degree of regional differentiation, and the stages of e-commerce segment development. The findings indicate that the sector is shifting from quantitative expansion toward qualitative consolidation. The study substantiates the movement of competition in the household appliances and electronics trade from price-based rivalry toward service-based rivalry, and puts forward proposals for improving trade services.

Keywords: retail trade, trade services, service quality, household appliances, electronics, retail turnover, real growth, e-commerce, regional differentiation, consumer behavior.

KIRISH

Savdo xizmatlari sohasida yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlar iste'molchilarning xarid qilish odatlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holat maishiy texnika va elektronika savdosida ayniqsa yaqqol namoyon bo'lmoqda, chunki bunday tovarlar aholi tomonidan uzoq muddatga mo'ljallab, o'ylab sotib olinadi va xaridor yakuniy qarorni ko'pincha savdo nuqtasida, sotuvchi bilan muloqotdan so'ng qabul qiladi[1]. Shu bois xaridorlar endilikda nafaqat mahsulotning sifati, turi va texnik xususiyatlariga, balki savdo jarayonida ko'rsatilayotgan xizmatlar darajasiga — malakali maslahat berilishi, to'lov





shakllarining qulayligi, yetkazib berish va o'rnatish, kafolat hamda sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatish sifatiga ham baho bermoqda[2]. Natijada savdo korxonalari o'rtasidagi raqobat asta-sekin narx maydonidan xizmat ko'rsatish maydoniga ko'chib, xaridorlarga qo'shimcha qulayliklar yaratish, xizmat ko'rsatish jarayonini takomillashtirish va mijozlar sodiqligini shakllantirish orqali bozorda ustunlikka erishish dolzarb vazifaga aylanmoqda[3].

Mamlakatimizda uzoq muddatli taraqqiyot yo'nalishlarini belgilab bergan "O'zbekiston — 2030" strategiyasida savdo va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish alohida vazifa sifatida belgilangan. Unda hududlarda xizmat ko'rsatish hajmini bir necha barobarga oshirish, shahar va tumanlarda zamonaviy bozor xizmatlarini yo'lga qo'yish, aholiga yaqin savdo va servis obyektlari tarmog'ini kengaytirish hamda yo'lbo'yi xizmat ko'rsatish infratuzilmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Bu esa savdo korxonalari oldiga tarmoqni miqdoran kengaytirish bilan birga, xizmat ko'rsatish darajasini iste'molchi talablariga moslashtirish vazifasini ham qo'ymoqda[4].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Rivojlanayotgan mamlakatlarda chakana savdo tarmog'ida kechayotgan o'zgarishlar iqtisodiy adabiyotlarda ko'pincha savdo modernizatsiyasi tushunchasi orqali izohlanadi. T.Reardon va uning hammualliflari Osiyo, Afrika hamda Lotin Amerikasi mamlakatlari misolida an'anaviy bozor savdosi o'rnini zamonaviy do'kon tarmoqlari egallashini o'rganib, bu jarayon qisqa vaqt ichida, ammo mamlakatlar kesimida turli tezlikda kechishi haqidagi xulosaga kelganlar[5]. A.Xortachsu va Ch.Syverson AQSh chakana savdosining so'nggi yigirma yillik taraqqiyotini tahlil qilar ekan, tarmoqdagi o'zgarishlarni bir necha savdo formati o'rtasidagi uzluksiz raqobat sifatida talqin qiladilar hamda elektron savdoning ulushi ko'p yillar davomida dastlabki prognozlardan ancha past bo'lib qolganiga e'tiborni qaratadilar[6]. Ushbu kuzatuv mazkur tadqiqot natijalari bilan hamohangdir, zero O'zbekistonda ham onlayn savdo o'nlab marta o'sgani holda umumiy aylanmadagi o'rni hanuz sezilarli darajaga yetgani yo'q.

Korxonalar soni bilan savdo aylanmasi o'rtasidagi bog'liqlik masalasiga bag'ishlangan tadqiqotlar alohida e'tiborga loyiq. L.Foster, J.Xoltiveyngir va S.Krizanlar AQSh chakana savdosi bo'yicha mikroma'lumotlarni tahlil qilib, tarmoqdagi mehnat unumdorligi o'sishi asosan bozorga kirayotgan yirikroq subyektlarning past samarali kichik subyektlar o'rnini egallashi hisobiga ta'minlanishini isbotlab berdilar[7]. Ularning xulosasiga tayanadigan bo'lsak, ro'yxatdagi korxonalar sonining kamayishini har doim ham tarmoq inqirozi deb baholash to'g'ri bo'lmaydi, chunki bu ko'rsatkich ortida resurslarning qayta taqsimlanish jarayoni turgan bo'lishi mumkin. Ayni shu sababdan Yevrostat va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining korxonalar demografiyasi bo'yicha metodologik qo'llanmasida tarmoq holatini baholashda yangi tashkil etilgan va tugatilgan birliklar bo'yicha alohida ko'rsatkichlar hisobga olinishi tavsiya qilinadi, aks holda statistik reyestrni tozalash oddiy iqtisodiy pasayish bilan chalkashtirib yuborilishi mumkinligi ta'kidlanadi[8].





TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi chakana savdo tarmog'ining 2016-2025-yillardagi holati tahlil qilindi. Mazkur davr tanlanishiga sabab shuki, ushbu yillarda valyuta bozorining erkinlashtirilishi va soliq tizimidagi islohotlar savdo sohasiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Tahlil doirasi ISIC Rev.4 klassifikatorining G bo'limi asosida belgilab olindi[9]. Ma'lumotlar bazasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy ko'rsatkichlaridan foydalanildi. Ular tarkibiga chakana savdo korxonalarining respublika va 14 ta hudud kesimidagi soni, savdo aylanmasining nominal hajmi, yillik o'sish sur'ati indeksleri, iste'mol narxleri indeksi hamda elektron tijorat hajmi kiradi. Elektron savdoning tovar tarkibiga oid ma'lumotlar xalqaro tashkilotlarning bozor sharhlaridan olinib, rasmiy statistika bilan solishtirilgan holda tekshirildi.

Tahlilning asosiy vazifasi aylanmaning nominal o'sishini uning real hajmidan ajratishdan iborat bo'ldi. Buning uchun zanjirli indekslar usuli qo'llanilib, yillik o'sish sur'ati indeksleri ketma-ket ko'paytirildi va butun davr uchun real o'sish koeffitsiyenti aniqlandi[10]. Shuningdek, elektron tijoratning umumiy aylanmadagi ulushi, hududlar o'rtasidagi tafovut darajasi hamda bitta korxonaga to'g'ri keladigan o'rtacha aylanma hisoblab chiqildi. So'nggi ko'rsatkich korxonalar soni qisqargan, aylanma esa o'sishda davom etgan yillarda tarmoqdagi yiriklashuv jarayonini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqotning cheklanganligi shundan iboratki, rasmiy statistikada yangi tashkil etilgan va tugatilgan korxonalar alohida ko'rsatilmagan, shu bois korxonalar sonining kamayishini faqat iqtisodiy pasayish bilan izohlab bo'lmaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda mamlakatimizda chakana tovar aylanmasi 482 443,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 11,2 foizga o'sgan[11]. Bu o'sish ortida nafaqat sotilayotgan tovarlar miqdori, balki savdo shakllarining o'zgarishi ham turibdi: an'anaviy bozor savdosi o'rnini zamonaviy do'kon tarmoqlari egallab bormoqda, elektron tijorat hajmi esa 2024-yil yakunida 1,2 mlrd dollarga yetib, umumiy chakana aylanmaning 3,8 foizini tashkil etdi[12].

Chakana savdo sohasining institutsional rivojlanish darajasini baholashda unda faoliyat yurituvchi xo'jalik subyektlari sonining dinamikasi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi, chunki u bozorga kirish erkinligi, raqobat muhiti va tadbirkorlik faolligining o'zgarishini aks ettiradi. Mamlakatimizda 2016–2025-yillarda chakana savdo korxonalari sonining respublika va hududlar kesimidagi o'zgarishi 1-jadvalda keltirilgan.


Jadval ma'lumotlari ko'rsatkichning bir tekis emas, balki ikki bosqichda o'zgarganini ko'rsatadi. Birinchi bosqich — 2016–2022-yillar: bu davrda korxonalar soni 41 182 tadan 114 142 taga, ya'ni 2,8 barobar ko'paygan. O'sishning eng yuqori nuqtasi 2019–2020-yillarga to'g'ri keladi (mos ravishda 41,9 va 34,6 foiz), keyin sur'at izchil sekinlashib, 2022-yilda 13,5 foizni tashkil etgan. Ikkinchi bosqich — 2023–2024-yillar: ikki yil ichida korxonalar soni



34 mingga yoki 29,8 foizga qisqargan. 2025-yildagi 7,6 foizlik tiklanish ham ko'rsatkichni 2022-yil darajasining atigi 75,5 foiziga qaytargan.

Bunday keskin qisqarish sohaning tarkibiy xususiyati bilan bog'liq. Toshkent shahri misolida 2025-yil 1-iyun holatiga chakana savdodagi 13 790 ta tijorat korxonasining 13 585 tasi kichik korxona va mikrofirmalarga to'g'ri kelgan, yirik korxonalar soni esa atigi 205 tani tashkil etgan. Ya'ni ro'yxatdagi korxonalarning 98–99 foizi mikro darajadagi subyektlar bo'lib, ular bozor sharoiti va soliq-hisobot yukiga eng sezgir qatlam hisoblanadi. Shu sababli 2023–2024-yillardagi kamayishni faqat iqtisodiy pasayish sifatida talqin qilish yetarli emas — u faoliyat yuritmayotgan subyektlarni reyestrda chiqarish bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Bu farazni tekshirish uchun yangi tashkil etilgan va tugatilgan korxonalar bo'yicha alohida ma'lumotlarni jalb qilish talab etiladi[11]. Hududiy kesimda o'sish sur'atlari sezilarli darajada tafovutli. 2016-yilga nisbatan eng yuqori ko'rsatkich Navoiy viloyatida qayd etilgan (4,3 barobar), Samarqand viloyatida 3,2 barobar. Sirdaryo viloyatida esa o'sish atigi 21 foizni, Andijon viloyatida esa umuman salbiy natijani (–3,1 foiz) ko'rsatgan. Natijada hududlar o'rtasidagi farq chuqurlashgan: 2016-yilda eng yuqori va eng past ko'rsatkichli hududlar nisbati 4,4 barobar bo'lgan bo'lsa, 2025-yilda 6,4 barobarga yetgan (Toshkent shahri — 13 542 ta, Sirdaryo viloyati — 2 130 ta).

Chakana savdo aylanmasining qiymat ko'rinishidagi o'sishi bilan uning real hajmi o'rtasidagi farqni aniqlash tahlilning muhim shartlaridan biridir. 2016–2025-yillarda respublika chakana savdo aylanmasining nominal hajmi va oldingi yilga nisbatan o'sish sur'ati 1-rasmda tasvirlangan.



**1-rasm. Chakana savdo aylanmasi hajmi va o'sish
suratlari o'zgarishi (2016-2025)[11]**



1-rasmdan ko'rinadiki, nominal hajm butun davr mobaynida bir marta ham qisqarmagan va 88 071,6 mlrd so'mdan 482 443,1 mlrd so'mga, ya'ni 5,5 barobar oshgan. Biroq o'sish sur'ati indekslarini ketma-ket ko'paytirish orqali hisoblangan real o'sish shu davrda atigi 2,06 barobarni tashkil etadi. Demak, nominal o'sishning yarmidan ko'pi narx omili hisobiga shakllangan va aylanma hajmini faqat so'mdagi ifodada baholash iste'mol bozorining haqiqiy kengayishini sezilarli darajada oshirib ko'rsatadi.

Bu farq ayniqsa 2018-yilda yaqqol namoyon bo'ladi: aylanma nominal jihatdan 26,6 foizga oshgan bo'lsa-da, real o'sish sur'ati 100,0 foizni, ya'ni nolni tashkil etgan. Shu bilan birga 2017–2018-yillardagi pasayish tasodifiy emas: 2017-yilda iste'mol narxlari indeksi bo'yicha inflyatsiya darajasi 14,4 foizni tashkil etgan bo'lib, unda oziq-ovqat mahsulotlari narxi 15,9 foizga, nooziq-ovqat mahsulotlari narxi 16,1 foizga oshgan.

Valyuta kursini erkinlashtirish va narxlarning keskin ko'tarilishi aholining real xarid qobiliyatini cheklab, savdo hajmining o'sishini to'xtatgan. Keyingi yillarda ko'rsatkich tiklanib, 2021-yilda 117,0 foizga yetgan, 2022–2025-yillarda esa 110,5–111,7 foiz oralig'ida barqarorlashgan[13].

Rasm ma'lumotlarini 2.1-jadval bilan qiyoslash muhim xulosaga olib keladi. 2022–2024-yillarda korxonalar soni 29,8 foizga qisqargan bo'lsa-da, savdo aylanmasi real o'sishda davom etgan. Natijada bitta korxonaga to'g'ri keladigan o'rtacha aylanma 2022-yildagi 2,4 mlrd so'mdan 2024-yilda 5,1 mlrd so'mga, ya'ni ikki barobardan ko'proq oshgan. Bu holat bozorning qisqarishini emas, balki savdo faoliyatining yiriklashuvini — kichik subyektlar sonining ko'payishi hisobidan emas, mavjud korxonalarning aylanmasi hisobidan o'sishni ko'rsatadi.

1-jadval

Chakana savdo korxonalari soni (2016-2025-yillar)[11]

Hududlar	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2046	2069	2197	2848	3978	4483	5012	4918	4043	4447
Andijon viloyati	4908	4199	4402	5235	6698	7726	8476	5771	4750	4754
Buxoro viloyati	2251	2175	2327	3614	4917	5878	6258	5814	4607	4931
Jizzax viloyati	1480	1476	1607	2049	2988	3424	4196	3596	2895	3136
Qashqadaryo viloyati	3182	3061	3265	4125	5387	7337	8944	7196	5908	6459
Navoiy viloyati	1265	1316	1464	3656	4994	6036	6451	5810	4895	5446
Namangan viloyati	3477	3439	3467	4671	6018	6705	7334	5439	4653	5220
Samarqand viloyati	3229	3357	3902	5444	8353	11595	14262	11691	9649	10176
Surxondaryo viloyati	2315	2255	2293	3197	4483	5197	5991	5136	4668	4920
Sirdaryo viloyati	1762	1707	1726	2431	3073	3266	3447	2742	2080	2130
Toshkent viloyati	4361	4414	4752	6666	8817	10003	11000	9210	7982	8578
Farg'ona viloyati	3424	3605	3898	5463	7400	8922	10314	8451	6792	7246
Xorazm viloyati	1971	2005	2139	3188	4086	5057	5946	6001	4856	5195
Toshkent shahri	5511	5871	6567	9870	12850	14922	16511	13314	12340	13542
Jami:	41182	40949	44006	62457	84042	100551	114142	95089	80118	86180

Elektron tijorat chakana savdo bozorining alohida segmenti sifatida yuqorida ko'rib chiqilgan umumiy aylanmaning tarkibiy o'zgarishini eng aniq aks ettiruvchi yo'nalish hisoblanadi. 2016–2025-yillarda uning hajmi 6 mlrd so'mdan 22 700 mlrd so'mga ko'tarilgan, ya'ni respublika chakana savdo aylanmasidagi






ulushi 0,01 foizdan 4,7 foizga yetgan. Boshqacha aytganda, umumiy aylanma 5,5 barobar oshgan bir sharoitda elektron savdo undan o'nlab marta tezroq kengaygan, biroq mutlaq ko'rsatkichda hanuz an'anaviy savdoning kichik qismini tashkil etadi.

Bu segmentning tovar tarkibi bir tekis emas: rasmiy statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda O'zbekiston elektron tijorat bozori hajmi 1,2 mlrd AQSh dollarini yoki chakana savdo bozorining 3,8 foizini tashkil etgan bo'lib, onlayn xaridlarda maishiy texnika va elektron tovarlar 35 foizni, kiyim-kechak mahsulotlari 19 foizni, uy-ro'zg'or buyumlari, oziq-ovqat hamda go'zallik va salomatlik mahsulotlari esa mos ravishda 3, 3 va 2 foizni egallagan. Demak, elektron savdoning o'sishi asosan yuqori qiymatli va standartlashtirilgan tovarlar — maishiy texnika va elektronika hisobiga ta'minlanmoqda; bu tovarlarning texnik tavsiflari xaridorga bevosita ko'rmasdan tanlash imkonini beradi va onlayn kanalning ustunligini shakllantiradi[14].

Yuqorida keltirilgan ulush ko'rsatkichlari elektron savdoning qanday tezlikda shakllanganini to'liq ochib bermaydi, chunki segment nol darajaga yaqin bazadan boshlangan. Elektron tijorat hajmining 2016–2025-yillardagi o'zgarishi 2-rasmda aks ettirilgan.



2-

rasm. 2016-2025-yillar oralig'ida elektron tijorat bozori o'zgarishi[11]

Diagramma o'sishning uch bosqichdan iborat ekanini ko'rsatadi. 2016–2019-yillarda ko'rsatkich mutlaq ifodada sezilarli emas — 2019-yilda ham u 275,3 mlrd so'mni tashkil etgan, garchi o'sha yili o'sish sur'ati butun davr uchun eng yuqori bo'lsa-da (6,7 barobar). Bunday yuqori foizlar past baza ta'siri bilan izohlanadi va ular sohaning haqiqiy og'irligini baholash uchun asos bo'la olmaydi.



2-jadval

Hududlar bo'yicha chakana savdo hajmi, mlrd.so'm (2016-2025-yillar)[11]

Hududlar	Yillar									
	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2,950.4	3,527.8	4,496.8	5,705.8	6,861.8	7,582.5	9,557.9	11,392.6	14,263.8	16,560.6
Andijon viloyati	6,777.8	8,124.9	10,367.9	12,704.3	14,810.1	15,376.3	19,046.9	22,770.8	28,630.5	32,849.9
Buxoro viloyati	5,611.9	6,578.5	8,375.0	10,309.2	12,072.8	12,747.1	15,522.0	18,167.1	22,420.5	25,811.9
Jizzax viloyati	2,912.3	3,442.7	4,373.4	5,883.0	7,223.3	6,472.8	7,995.4	9,516.8	11,372.9	13,086.0
Qashqadaryo viloyati	6,202.9	7,187.3	8,818.5	10,639.7	13,523.9	14,399.4	18,165.9	21,781.7	26,804.1	30,857.1
Navoiy viloyati	3,684.7	4,348.5	5,436.3	6,776.0	7,922.8	8,091.6	10,101.6	12,356.0	15,253.7	17,863.4
Namangan viloyati	5,253.4	6,334.2	7,829.0	9,962.2	12,233.8	13,541.9	17,273.1	20,665.8	25,185.7	29,577.1
Samarqand viloyati	7,605.2	8,973.5	11,123.1	13,877.3	16,816.8	19,882.0	25,342.5	30,196.5	35,994.7	41,892.4
Surxondaryo viloyati	6,015.1	7,149.0	8,846.2	11,055.7	12,545.8	13,737.4	17,428.5	20,845.7	25,310.4	29,569.4
Sirdaryo viloyati	1,547.4	1,836.8	2,295.5	2,872.6	3,584.0	3,800.3	4,453.7	5,239.2	6,420.5	7,464.5
Toshkent viloyati	9,223.0	11,149.5	14,101.0	17,420.0	20,808.1	20,389.1	25,250.0	30,872.1	38,550.4	45,213.6
Farg'ona viloyati	7,655.7	9,020.4	11,277.6	13,744.3	16,414.8	18,850.0	22,448.5	27,781.8	35,545.6	42,194.6
Xorazm viloyati	3,365.9	3,948.5	5,269.2	6,915.5	8,589.2	8,869.9	11,317.2	13,412.3	16,127.3	18,715.9
Toshkent shahri	19,265.9	23,608.2	30,585.5	38,228.9	46,111.6	63,434.8	66,784.0	88,982.9	108,188.0	130,786.6
Jami:	88,071.6	105,229.8	133,195.0	166,094.5	199,518.8	227,175.1	270,687.2	333,981.3	410,068.1	482,443.1



Ikkinchi bosqich 2020–2022-yillarni qamrab oladi: pandemiya davridagi cheklovlar va to'lov infratuzilmasining kengayishi natijasida hajm 1 002,5 mlrd so'mdan 10 886,8 mlrd so'mga, ya'ni ikki yilda 10,9 barobar oshgan. Uchinchi bosqich — 2023-yildan keyingi davr, unda o'sish sur'ati keskin sekinlashib, 121,8 va 114,7 foizgacha tushgan, 2025-yilda esa yana 149,2 foizga ko'tarilgan.

Ushbu dinamikani chakana savdo aylanmasi bilan taqqoslash muhim tafsilotni ochadi. Elektron tijoratning umumiy aylanmadagi ulushi 2022-yilda 4,0 foizga yetgach, keyingi ikki yilda 3,7 foizgacha pasaygan — ya'ni 2023–2024-yillarda onlayn savdo an'anaviy savdoga qaraganda sekinroq o'sgan. Faqat 2025-yilda vaziyat o'zgargan: hajmning bir yillik o'sishi 7 488,5 mlrd so'mni tashkil etib, butun davrdagi eng katta mutlaq qo'shimchani bergan va ulush 4,7 foizga ko'tarilgan. Demak, elektron tijoratning rivojlanishi uzluksiz emas, balki to'xtalishlar bilan kechgan va uning chakana savdodagi o'rnini hali barqarorlashmagan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, mamlakatimiz chakana savdo tarmog'ida so'nggi o'n yil ichida miqdoriy kengayishdan sifat jihatdan yiriklashuvga o'tish jarayoni yuz bergan. 2022-yilgacha korxonalar soni 2,8 barobar ko'paygan bo'lsa, keyingi ikki yilda bu ko'rsatkich 29,8 foizga qisqargan, biroq shu davrda savdo aylanmasi o'sishda davom etib, bitta korxonaga to'g'ri keladigan o'rtacha aylanma 2,4 mlrd so'mdan 5,1 mlrd so'mga ko'tarilgan. Bunday holat bozorning torayganidan emas, aksincha, savdo faoliyatining yirik subyektlar atrofida jamlanayotganidan dalolat beradi.

Aylanmaning qiymat ko'rinishidagi o'sishini real hajmdan ajratish esa boshqa muhim jihatni ochib berdi. Davr mobaynida nominal hajm 5,5 barobar oshgani holda, real o'sish 2,06 barobarni tashkil etdi, ya'ni o'sishning yarmidan ko'pi narx omili hisobiga shakllandi. Ayni paytda hududlar o'rtasidagi tafovut ham kengayib, eng yuqori va eng past ko'rsatkichli hududlar nisbati 4,4 barobardan 6,4 barobargacha yetdi.

Elektron tijorat segmentiga kelsak, uning hajmi tahlil qilinayotgan davrda 6 mlrd so'mdan 22 700 mlrd so'mga ko'tarilib, chakana savdo aylanmasidagi ulushi 4,7 foizni tashkil etdi. Shunga qaramay, bu o'sish uzluksiz kechmadi: 2023-2024-yillarda onlayn savdo an'anaviy savdodan sekinroq o'sib, ulush 3,7 foizgacha pasaygan. Segmentning asosiy tayanchi maishiy texnika va elektronika bo'lib qolmoqda, chunki onlayn xaridlarning 35 foizi aynan shu tovarlar hissasiga to'g'ri keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, savdo korxonalari faoliyatini baholashda korxonalar sonining o'zgarishiga tayanish yetarli emas — real aylanma va bitta subyektga to'g'ri keladigan ko'rsatkichlarni birgalikda kuzatish talab etiladi. Buning uchun rasmiy statistikada yangi tashkil etilgan hamda tugatilgan korxonalar bo'yicha alohida ma'lumotlar e'lon qilinishi maqsadga muvofiq. Maishiy texnika va elektronika savdosida raqobat narx maydonidan xizmat ko'rsatish maydoniga ko'chgani bois, korxonalar maslahat berish, yetkazib berish,





o'rnatish va kafolat xizmatlarini onlayn va oflayn kanallar o'rtasida uzluksiz tashkil etishi lozim. Hududiy tafovutni yumshatish yuzasidan esa savdo va servis infratuzilmasini qo'llab-quvvatlash choralari ko'rsatkichi past bo'lgan viloyatlarga yo'naltirish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sit J.K., Hoang A., Inversini A. Showrooming and retail opportunities: A qualitative investigation via a consumer-experience lens // Journal of Retailing and Consumer Services. — 2018. — Vol. 40. — P. 163–174.
2. Dabholkar P.A., Thorpe D.I., Rentz J.O. A measure of service quality for retail stores: Scale development and validation // Journal of the Academy of Marketing Science. — 1996. — Vol. 24, No. 1. — P. 3–16.
3. Xojiyev E.Yo. O'zbekistonda savdo xizmatlari sohasining rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari. — 2023. — B. 311–315.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni. — <https://lex.uz/uz/docs/-6600413>
5. Reardon T., Timmer C.P., Barrett C.B., Berdegue J. The Rise of Supermarkets in Africa, Asia, and Latin America // American Journal of Agricultural Economics. — 2003. — Vol. 85, No. 5. — P. 1140–1146.
6. Hortaçsu A., Syverson C. The Ongoing Evolution of US Retail: A Format Tug-of-War // Journal of Economic Perspectives. — 2015. — Vol. 29, No. 4. — P. 89–112.
7. Foster L., Haltiwanger J., Krizan C.J. Market Selection, Reallocation, and Restructuring in the U.S. Retail Trade Sector in the 1990s // The Review of Economics and Statistics. — 2006. — Vol. 88, No. 4. — P. 748–758.
8. Eurostat–OECD Manual on Business Demography Statistics. — Luxembourg: Office for Official Publications of the European Communities, 2007.
9. United Nations. International Recommendations for Distributive Trade Statistics 2008 (IRDTS 2008). Statistical Papers, Series M No. 89. New York: United Nations, 2009. <https://unstats.un.org/unsd/trade/m89%20englishForweb.pdf>
10. Consumer Price Index Manual: Concepts and Methods, 2020. Washington, D.C.: ILO, IMF, OECD, Eurostat, UN, World Bank, 2020. <https://www.imf.org/en/data/statistics/cpi-manual>
11. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari.
12. Экономика Узбекистана // TAdviser. — URL: https://www.tadviser.ru/index.php/Статья:Экономика_Узбекистана
13. https://trustbank.uz/uz/press_center/news/qayta_moliyalash_stavkasi-14-foiz_miqdorida_qoldirildi/
14. <https://www.trade.gov/country-commercial-guides/uzbekistan-ecommerce/>



Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**